

# **“Uzbekistan Airways” AJ rahbariyati tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasida sayyor qabul tashkil etildi**

**2021 25 Noyabr**

Mamlakatimizda inson manfaatlari oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilib, bugun barcha davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim yaratildi. Xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda joylarda o‘tkazilayotgan sayyor qabullar o‘z natijalarini bermoqda.

Uzbekistan Airways rahbariyati tomonidan 2021-yil 25-noyabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslar ishtirokida sayyor qabullar o‘tkazildi.

Sayyor qabulda aksiyadorlik jamiyatining barcha tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida fuqarolar bilan uchrashdi. Unda jismoniy va yuridik shaxslar, aviachiptalar sotuvi bo‘yicha agentlari, turistik kompaniyalar, tadbirkorlik subyektlari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Ushbu uchrashuvda, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, yo‘lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, aviakompaniya va yo‘lovchilar o‘rtasidagi amaldagi qonunchilikda belgilangan munosabatlarni yanada kuchaytirish, bevosita muloqotlar qilish orqali yuzaga kelgan takliflar va muammolarni o‘rganish, mavjud muammolarni tezkorlik bilan bartaraf qilish va kelgusida bunday vaziyatlarni oldini olish bo‘yicha qilinayotgan ishlar to‘g‘risida fikr almashildi.

Bu borada ushbu sayyor yig‘ilishlarida ham yo‘lovchilar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, himoya qilish va kafolatlash borasida aniq manzilli ishlar amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida ma‘lumot berildi.

Shuningdek, aviakompaniya vakillari tomonidan aviachiptalar bilan bog‘liq firibgarlikdan extiyot bo‘lish kerakligi, yuridik manzili va hech qanday huquqiy hujjatga ega bo‘lmagan aviakassalardan chiptalar sotib olmasliklari, begona shaxslarga plastik karta raqami va shaxsiy parolni bermasliklari haqida tushuntirish

ishlari o'tkazildi.

Xalq bilan muloqot tarzida bo'lib o'tadigan bu kabi sayyor qabullar doimiy ravishda Respublikamizning barcha hududlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)